

## **RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TOʻLOVLARNI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Otabayev Nodir Oybek oʻgʻli**

**TDIU, assistent**

*neo.17.05.95@gmail.com*

**Kobilov Alisher Urinovich**

**TDIU, dotsent**

*alisher.kobilov@gamil.com*

**Rajabov Sherzod Baxtiyorovich**

**TDIU, assistent**

*mr.sherzod.uz@mail.ru*

### **Annotatsiya**

*Raqamli iqtisodiyot sharoitida Soliq tushunchasi va uning mohiyati. Davlat byudjetida soliq tizimi. Raqamli iqtisodiyotning oʻrni hamda dolzarbligi. Soliq turlari va hozirda unga kiritilayotgan islohotlar va oʻzgarishlar. Soliq toʻlash tizimini masofaviy online koʻrinishga oʻtishi hamda bu jarayonning salbiy va ijobiy taraflari.*

### **Kalitli soʻzlar**

*Soliq, soliq tizimi, raqamli iqtisodiyot elektron kalit, soliq turlari, byudjet, davlat byudjeti*

Soʻngi vaqtlarda "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda koʻp marta qoʻllanilmoqda. Darhaqiqat, koʻplab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada taʼsir oʻtkazgan.

Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq boʻlmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga oʻtishda, qanday oʻzgarishlar roʻy berishi mumkinligini aytib oʻtgan.

Raqamli iqtisodiyot - bu xoʻjalik faoliyatini yuritish boʻlib, bunda ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatishdagi asosiy omil raqamlar koʻrinishidagi maʼlumotlar boʻlib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiiq qilishdir. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar koʻrsatish, elektron toʻlovlar amalga oshirish, internet savdo, va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bogʻlangan faoliyatdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 10- iyul kuni "Soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha choratadbirlar toʻgʻrisida"gi qarorni qabul qildi. Bu esa oʻz navbatida yurtimizda soliq tizimiga katta eʼtibor qaratilayotganini va bu soliq tizimni yangi bosqishga olib chiqishda muhim omil boʻladi. Soliq davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini taʼminlash uchun davlat organlari tomonidan tashkilot va jismoniy shaxslardan yigʻib olinadigan toʻlovlarni turiga aytiladi.

Sohani raqamlashtirish, jumladan, maʼlumotlarni qayta ishlash markazini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, oʻz navbatida, soliq toʻlovchilarga roʻyxatdan oʻtish, soliq rejimini tanlash, byudjet bilan munosabatlarini onlayn kuzatish, hisobotlarni shakllantirish va topshirish, shaxsiy kabineti orqali dunyoning istalgan burchagidan turib soliq majburiyatlarini elektron tarzda bajarish imkoniyatini berdi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirish tartiblari bekor qilindi, tadbirkorlar tomonidan beriladigan soliq hisobotlarning shakli va taqdim etish muddatlari soddalashtirildi. Shu bilan birga, soliq ma’muriyatchiligi tizimini amalga oshirishda bir qator muammolar mavjudligi sababli davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning quyidagi muhim yo‘nalishlari belgilandi:

- Soliq to‘lash jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or raqamlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish.
- Soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz masofadan internet orqali raqamli xizmatlar ko‘rsatishga to‘liq o‘tish.
- Yangi vositalar – elektron hisobvaraqa-faktura, elektron shartnoma, onlayn nazorat kassa texnikalari, raqamli markirovka, mahsulotlarning yagona elektron milliy katalogi joriy etish.

Umumiy hisobda soliq organlarining elektron raqamli davlat xizmatlar portali yaratish, axoli va tadbirkorlarni soliq organlariga axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy xizmatlarni tashkil etish talab etiladi. Xizmatlardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda 562-II-sonli «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida» qonuni asosida elektron raqamli imzodan foydalanish orqali amalga oshirishi mumkin.

Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzo ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

Hozirda hamma narsa raqamlashayotgan bir zamonda soliq tizimi ham bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Iqtisodiyoti raqamlashgan davlatlarni biz rivojlangan mamlakat deb hisoblashimiz mumkin. Bunga misol sifatida rivojlangan davlatlar Janubiy Korea, Singapur, AQSH, Gonkong kabi davlatlarni misol keltirishimiz mumkin. Raqamli iqtisodiyotni soliq tizimiga qo‘llash esa vaqt, aniqlik va sifat darajasini yuksaltirishga yordam beradi.

Soliq tizimi: masofaviy, onlayn, yuridik shaxslardan olinadigan daromad soligi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar. Umumdavlat Soliqi har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo‘yicha tegishli byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Mahalliy Soliq va yig‘imlar mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, reklama solig‘i, avtotransport vositalarini sotganlik uchun soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligi, savdosotiq huquqi uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqa Mahalliy soliq va yig‘imlar mahalliy byudjetga o‘tkaziladi. Davlat tomonidan undirilgan Soliq byudjet vositasida qayta taqsimlanib, soliq to‘lovchilarga sog‘liqni saqlash, maorif, ilmfanni rivojlantirish, mudofaa, xuquqni muhofaza qilish kabi ijtimoiy zarur davlat xizmatlari orkli bilvosita yo‘llar bilan qaytadi.

Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsada, davlat sarflari miqyosining o‘sishi o‘z navbatida soliqlarning o‘shini taqozo qiladi va uning darajasini belgilab beradi. Hozirgi davrda umumiy tendensiya bo‘lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining o‘shib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi. Aholi sonining o‘shishi. Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya. Atrof-muhitning ifloslanishi. Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta’minlash xarajatlari hajmining o‘shishi. Korxonalar faoliyatini soliq yordamida tartibga solish quyidagi umumiy tamoyillari asosida amalga oshiriladi: barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog‘liq bo‘lmagan holda soliq undirishning majburiyligi; soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati; Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilishi zarur. Adolatlilik

tamoyili - daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo‘yicha teng bo‘lgan kishilar teng miqdorda soliq to‘lashi zarur.

Mamlakatimizda Soliq tizimini bundanda yuksaltirish uchun bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasida 2021-yil 28-avgustda Yangi O‘zbekiston – yangi soliq tizimi, yangi natijalar, yangi rejalar belgilab olindi. U yerda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ning Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir degan so‘zlari ham keltirilgan.

### **Xulosa**

Mamlakatimiz soliq tizimida raqamlashtirishdan foydalanar ekan bu bir qator o‘zining salbiy va ijobiy taraflarini ko‘rsatmay qolmaydi. Birinchidan raqamlashtirish bizga ochib beradigan imkoniyatlarni ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak. Avvalambor bu sifatning yuksak darajaga erishishi bilan inson mehnat kuchini kamayishi ya’ni ortiqcha mehnat taqsimotiga hojat qolmasligini ko‘rsatadi. Soliq tizimi raqamlashuvi hamma jarayonni nazorat qilish erta va bugunni rejalashtirigan taxminlar bilan emas balki aniq raqamlar va aniq statistikalar orqali boshqarish imkoniyatini yaratadi. Bu tizimdan foydalanish xalqimizning ba’zida holatlarda yuzaga keladigan turli tushunarsiz holatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Har bir ish tez va sof hamda halol ko‘rinishda bo‘ladi.

Endilikda salbiy taraflarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Demak inson kuchini tejashda raqamlashtirishdan foydalanar ekanmiz uning o‘rnini raqamli texnologiyani o‘zi qoplashi shubhasiz. Soliq tizimimiz raqamli ko‘rinishda bo‘lar ekan uning himoyasiga katta e’tibor qaratmaslikni iloji yo‘q. Bu birinchilikda axborot xavsizligi dunyo bo‘yicha kibr xujumlarni soni oshganligi, axborotni ximoyalash malakali kadrlarni zamonaviy soliq tizimga moslashtirish. Uni turli kibr hujumlardan saqlash uchun. Ammo hozirgi zamonda raqamlashtirishdan foydalanmaslik yoki undan vos kechishni umuman iloji yo‘q. Raqamlashtirishdan vos kechish bu sinish demakdir. Soliq tizimimiz raqamlashtirilayotgan ekanmiz bu tizimda bir pog‘onaga o‘sganimizni bildiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari Gulyamov.S.S 2019
2. Soliq 77 M.Y. Blokh a course in theoretical English grammar
3. Soliq 18 Iqtisodiy talimot tarixi. Darslik yangi
4. "Tech Blog: Amaliy dasturlash interfeyslarining (API) afzalliklari - Blog Detail - Science Gateways Community Institute (SGCI)". Sciencegateways.org. Olingan 27-10-2021.
5. Sayt Global Raqamli Biznesni o‘ boshqaruv markazi, 2019. [Elektronnyy resurs]. - Rejim dostup: <https://www.imd.org/dbt/digitalbusiness-transformation>
6. Stefanova N.A., Mursalimov D.A., 2018. Tsifrovaya ekonomika i ee v upravlenii sovremennymi sotsial-ekonomicheskimi otnosheniyami // Aktualnye savollar sovremennoy ekonomiki, 2018, 3: 44-47
7. <http://soliq.uz>
8. <http://el.tfi.uz>
9. <http://lex.uz>